



TURKISTON MA'RIFATPARVARLARINING XALQ MAORIFI
RIVOJLANISHIDAGI HISSALARI.

Toshpo'latov Nurbek Boboqul o'g'li

SamISI ijtimoiy fanlar kafedrasi tarix fan o'qituvchisi

Ismoilova Mexriniso G'ulomjonovna

SamISI talabasi

Annotatsiya: Ushbu ishda Turkiston ma'rifatparvarlarining xalq maorifini rivojlantirishdagi hissasi o'rganiladi. XIX asr oxiri va XX asr boshlariida Turkiston hududida milliy uyg'onish davri yuzaga kelib, ma'rifatparvarlar xalqni savodli qilish, ta'lim-tarbiya tizimini isloh etish va milliy uyg'onishni ta'minlashga intildilar. Ular eski mакtab va madrasa tizimini zamonaviy maktablar bilan almashtirishga harakat qilib, jadid maktablarini tashkil etdilar. Ma'rifatparvarlar xalq orasida bilim va ma'rifat tarqatish orqali milliy o'zlikni anglashni targ'ib qilishga katta e'tibor qaratdilar. Ushbu jarayonlar orqali ular Turkistonning madaniy, ma'naviy va ijtimoiy taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shdilar.

Kalit so'zlar: Turkiston, ma'rifatparvarlik, xalq maorifi, jadidchilik, milliy uyg'onish, zamonaviy maktablar, madaniy taraqqiyot, ma'rifat tarqatish.

**ВКЛАД ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ ТУРКЕСТАНА В РАЗВИТИЕ НАРОДНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ**

Toshpo'latov Nurbek Boboqul o'g'li

*преподаватель кафедры общественных наук Самарканского
государственного института архитектуры и строительства, преподаватель
истории.*

Исмаилова Мехринисо Гуломжоновна

студент СамИСИ

Аннотация: В данной работе изучается вклад просветителей Туркестана в развитие народного образования. В конце XIX и начале XX века в Туркестанском крае наступил период национального возрождения, в ходе которого просветители стремились ликвидировать безграмотность, реформировать систему образования и обеспечить национальное возрождение. Они старались заменить старую систему мектебов и медресе современными школами, организуя джадидские школы. Просветители уделяли большое внимание пропаганде знаний и образования среди народа, способствуя осознанию национальной идентичности. Через эти процессы они внесли неоценимый вклад в культурное, духовное и социальное развитие Туркестана.



Ключевые слова: Туркестан, просветительство, народное образование, джадидизм, национальное возрождение, современные школы, культурное развитие, пропаганда знаний.

THE CONTRIBUTIONS OF TURKESTAN ENLIGHTENERS TO THE DEVELOPMENT OF PUBLIC EDUCATION.

Toshpo'latov Nurbek Boboqul o'g'li

history teacher at the Department of Social Sciences, Samarkand State Institute of Architecture and Civil Engineering (SamSACI).

Ismoilova Mexriniso G'ulomjonovna

Student of SamISI

Annotation: This study examines the contribution of Turkestan intellectuals to the development of public education. At the end of the 19th and the beginning of the 20th century, a period of national awakening emerged in Turkestan, during which intellectuals aimed to eradicate illiteracy, reform the education system, and ensure national revival. They sought to replace the traditional maktabs and madrasahs with modern schools by establishing jadid schools. Intellectuals paid great attention to promoting knowledge and education among the population, fostering awareness of national identity. Through these processes, they made an invaluable contribution to the cultural, spiritual, and social development of Turkestan.

Keywords: Turkestan, intellectualism, public education, jadidism, national awakening, modern schools, cultural development, promotion of knowledge.

KIRISH

XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida milliy uyg'onish va madaniy rivojlanish jarayonlari kuchayib bordi. Ayniqsa, jadidchilik harakati vakillari bo'lgan ma'rifatparvarlarning faoliyati xalq maorifi rivojiga katta hissa qo'shdi. Ular milliy ma'naviyatni tiklash, ilm-fanni keng targ'ib qilish va yangi usuldagagi maktablarni tashkil etish orqali zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishga katta e'tibor qaratdilar. Ma'rifatparvarlar jamiyatdagi qoloqlik va savodsizlikni yo'qotish, yosh avlodni dunyoqarashi keng, ilmli va barkamol insonlar qilib tarbiyalashni asosiy vazifa deb bildilar.

Mazkur mavzu o'sha davrning dolzarb masalalarini va jadid ma'rifatparvarlarining o'z xalqining ravnaqi yo'lidagi intilishlarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ishda ular olib borgan faoliyatining ta'lim-tarbiya sohasidagi o'rni va xalq maorifi rivojlanishiga qo'shgan hissasi yoritildi.

Ma'rifatparvarlarning fidoyi ishlari o'z davrida jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotida katta siljishlarga sabab bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ularning merosi milliy o'zlikni anglash va ma'naviyatni yuksaltirishda muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Shu sababli, bu mavzu o'z tarixiy, madaniy va ta'limiy ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydi.

Foydalanaliga adabiyotlar tahlili

Karimov, I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Kitob milliy ma'naviyat va ta'lim-tarbiyaning jamiyatdagi ahamiyati haqida muhim ma'lumotlar beradi. Fitrat, A. Oila yoki



tarbiya haqida. Toshkent:Jadidlarning ta'lim-tarbiya masalalariga bo'lgan yondashuvini aks ettiruvchi muhim manba.Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.Milliy uyg'onish davridagi eng muhim asarlardan biri, xalq maorifi va tarbiya masalalarini yoritadi.. Vohidov, H. Jadidchilik harakati tarixi. Ushbu kitob jadid harakatining Turkistondagi rivoji, vakillari va ularning maorif sohasidagi faoliyati haqida bat afsil ma'lumot beradi Shukurov, O. XX asr boshlarida Turkiston madaniyati. Turkistonning madaniy rivojlanishi va ma'rifatparvarlarning bu jarayondagi roli haqida bat afsil yoritiladi. Turkiston jadidchilari asarlari. "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi",

Natija va tahlil

Turkiston ma'rifatparvarlarning xalq maorifi rivojlanishidagi hissasini o'rganish jarayonida quyidagi takliflarni inobatga olish mumkin:

1. Jadid ma'rifatchilar faoliyatini chuqurroq o'rganish:

Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Hamza kabi yetakchi ma'rifatparvarlarning ta'lim sohasidagi islohotlari va ular qoldirgan merosini zamonaviy ta'lim tizimi bilan bog'lashga e'tibor qaratish.

2. Arxiv materiallari va nodir asarlar bilan ishlash:

O'sha davrda yaratilgan gazeta-jurnallar, o'quv qo'llanmalari va darsliklarni o'rganib, ulardagi g'oyalarni tahlil qilish.

3. Zamonaviy ta'limga moslashtirish:

Ma'rifatparvarlarning ilgari surgan g'oyalari (masalan, bilimning hayotiyligi, yoshlarning har tomonlama tarbiyasi) asosida hozirgi ta'lim dasturlarini boyitish.

4. Ilmiy konferensiyalar tashkil etish:

Turkiston ma'rifatchilari faoliyatiga bag'ishlangan xalqaro va milliy ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazish.

Xulosa va takliflar

Turkiston ma'rifatparvarlari xalq maorifi rivojlanishida ulkan rol o'ynagan. Ularning faoliyati nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi kun ta'lim tizimi va milliy ma'nnaviyatni shakllantirish uchun ham beqiyos ahamiyatga ega. Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Hamza kabi jadid ma'rifatchilari o'z xalqini savodsizlik va qoloqlikdan olib chiqish uchun yangi usuldag'i mакtablar tashkil etib, ilm-fanni keng ommaga yetkazishga intildilar.

Bu ma'rifatparvarlar xalqning ma'nnaviy va madaniy uyg'onishiga katta hissa qo'shib, yoshlarda ilm-fanga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishga muvaffaq bo'ldilar. Ularning asarlari va ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari hozirgi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Shu bois, ma'rifatchilar merosini chuqur o'rganish va zamonaviy ta'lim tizimida tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ularning g'oyalari asosida yosh avlodni tarbiyalash, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shuningdek, ta'lim sifatini oshirish mumkin. Turkiston ma'rifatparvarlarning mehnati biz uchun tarixiy o'rnak bo'lib, millatimizni ma'nnaviy va ilmiy jihatdan rivojlantirish yo'lida yo'lchi yulduz bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov, I.A. Yuksak ma'nnaviyat – yengilmas kuch.



2. Fitrat, A. Oila yoki tarbiya haqida.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.
4. Shukurov, O. XX asr boshlarida Turkiston madaniyati.